



SHAXS EHTIYOJLARI – MA’NAVIY QIYOFA RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Jabborov Jamshid Azimovich

Fal. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD), dotsent.

Xalqaro innovatsion universitet (Qarshi, O‘zbekiston)

jamshidshoh@gmail.com,

+998995777675

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs ehtiyojlari – ma’naviy qiyofa rivojlanishining muhim omili ekanligi yoritilgan bo‘lib, insonlarning yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy va nomoddiy, ma’naviy ne‘matlarga talab-zarurat to‘g‘risidagi qarashlar tizimli ravishda ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: inson, ma’naviy qiyofa, ehtiyoj, ma’naviy ehtiyoj, jamiyat.

Jamiyat asosini insonlarsiz tasavur qilib bo‘lmaydi. Inson esa barcha jonzodlarning eng oliysi. U boshqa jonzodlardan o‘zining aql idroki, voqelikni anglashi, ongli faoliyat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. U hayot kechirish uchun turli ehtiyojlarini qondirishi shart, chunki busiz yashay olmaydi. Yashash uchun u ovqatlanishi, keyim-kechak, boshpanadan foydalanishi, xavfsizlikni ta‘minlashi kerak. O‘ziga kerakli mahsulotlarni u tayyor holda to‘liq tabiatdan olmaydi, balki o‘zi ishlab chiqaradi. Yaratuvchanlik uni hayvonot dunyosidan ajratib turadigan aql va til kabi, yana bir muhim belgisidir. Inson yashar ekan, uning ehtiyojlari mavjud. Ehtiyojlar ob‘ektiv (moddiy va ma’naviy ko‘rinishda) xususiyatga ega, lekin ular sub‘ektiv (inson tomonidan qondiriladi) anglanadi va yuzaga chiqadi. Insonning butun umri, faoliyati va harakatlari ana shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Eng avvalo insonning organizmi unga o‘zining normal faoliyat ko‘rsatishi uchun sezgilar yordamida qabul qilinadigan ichki va tashqi ma’lumotlarga doimiy ehtiyoj sezadi. Natijada, inson ochlikni, tashnalikni, uxlash, sovuqqotish yoki qizib ketish kabi tabiiy-fiziologik tuyg‘ularini his etadi, bilim olish, kino ko‘rish, qo‘shiq aytish yoki tinglash, insonlar bilan muloqot qilish, yangi ixtirolar qilishga, yangi-yangi mahsulotlar yaratishga undaydi. Sotsiumning ma’lum birligi: ota-ona, qarindosh-urug‘, do‘st-birodarlar, qo‘ni-qo‘shni, tanishlar, tasodifiy uchrashgan odamlar, bog‘cha, maktab, ta‘lim-tarbiya tizimi va hokazolar insonning tashqi ma’lumotlar manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Insonning barcha odatlari, his-tuyg‘ulari, bilim va hayot tajribasi, u yoki bu narsaga baho berishi, avvaldan o‘ylagan yoki beixtiyor xohish-istaklari organizm qabul qiladigan ma’lumot asosida shakllanadi. Yangi qabul qilingan ma’lumotlar yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi, mavjudlariga aniqlik kiritadi, ba‘zan ularni pasaytiradi yoki yo‘qqa chiqaradi, ba‘zan esa ularni boyitadi.

Insonlarning yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy, ma'naviy ne'matlarga talab ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi. Inson ongli mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida aqlini ishlatadi, izlanadi. Ehtiyojlarni qondirishi zarurligi uni amaliy yaratuvchanlikka, turli faollikka undaydi. Insonning ehtiyojlari xilma-xil. U yashar ekan, fiziologik jarayonlarda ishtirok etadi, moddiy-iqtisodiy manfaatlarini, talablarini qondiradi, bilim oladi, boshqalar bilan muloqotda bo'ladi, do'stlashadi va hokazo. Ehtiyojlar turli shakllari, xususiyatlari, sifat, belgi, miqdor va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Har bir inson uchun o'zining qadr-qimmat o'lchovi mavjud bo'lib, bir inson tomonidan qadrlangan, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa ikkinchi bir kishi uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmazligi mumkin. Albatta, inson yashashi uchun zarur hisoblangan biofiziologik va birlamchi ijtimoiy ehtiyojlari mavjud. Lekin uning ikkilamchi murakkab ehtiyojlari (ko'plab ma'naviy ehtiyojlari) ham borki, ularning qondirilmasligi inson hayotini tanazzulga (inqirozga) yuz tutishiga, johillik avj olishiga olib kelishi mumkin. Har bir inson uning uchun qaysi ehtiyojlar eng zarurligini o'zi belgilaydi. Individual ehtiyojlardan tashqari oilaviy, jamoaviy, kasbiy, tabaqaviy, sinfiy, milliy ehtiyojlar bor. Ular, albatta, sotsiumning tegishli birligi uchun umumiydir, uning muayyan a'zolari buni qay darajada anglashidan qat'i nazar. Masalan, oilaning manfaatlarini tufayli paydo bo'ladigan oilaviy ehtiyojlarni uning ba'zi a'zolari (er, xotin yoki farzandlardan biri) yaxshi anglamasligi, o'zining xudbin xohish-istaklarini ulardan ustun qo'yishi mumkin. Lekin bu oilaning umumiy ehtiyojlari yo'q degani emas. Oilaning ehtiyojlari erning yoki xotinning ehtiyojlari bilan o'lchanmaydi. Masalan: ro'zg'or buyumlarini harid qilish orqali uy bekasini, mashina sotib olish bilan erning ehtiyojlari emas, balki oila ehtiyojlari qondiriladi.

Ehtiyojlar va ularning mazmun-mohiyati to'g'risidagi masala ijtimoiy fikr va ijtimoiy ongning tarixan ustuvor mavzularidan biri hisoblanadi.

Juda qadimdan inson, uning ijtimoiy mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni falsafiy fanlar tizimining (falsafa, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, ma'naviyat asoslari, etika, estetika va hokazo) muhim sohalaridan birini tashkil etgan.

Ehtiyojlar tushunchasiga falsafiy va ijtimoiy fanlar tizimidagi fanlar bir-biridan farq qiladigan ta'riflar berishgan. Xususan, "Falsafa" (qomusiy lug'atda): "Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifodalovchi holat" – ekanligi qayd etilgan. Inson faolligi boshqa mavjudotlarga nisbatan shakl va mohiyat jihatidan farq qilishi ta'kidlanadi [4]. Mavjudotlarda (hayvonlarda) ehtiyojlar tabiiy maqsadga muvofiq ravishda kechsa (hayvonlarda ong mavjud bo'lmaganligi uchun yaratuvchanlik faoliyatini olib bormaydi), insonlar faolligining manbai moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlar hisoblanadi. Inson bir davrning o'zida ham individuallik, ham ijtimoiylik kasb etganligi uchun uning ehtiyojlari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga egadir.

Shuningdek, "Falsafa. Ensiklopedik lug'at" da ehtiyoj tushunchasiga berilgan ta'rif yuqoridagidan farq qilishini ko'ramiz: "Ehtiyoj – yashash va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlikdir. Ehtiyoj faqat inson

organizmi uchun emas, balki o'simliklar dunyosi, korxonalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va boshqa har qanday tabiiy va ijtimoiy tizimlarga ham xosdir" [5]. Ushbu ta'rifdan quyidagi fikrlar kelib chiqadi: ehtiyoj faqatgina insonga xos bo'lgan voqelik emas, balki butun bir mavjudotga (hayvonlar, o'simliklar) tegishlilikini ifodalaydi. Lekin, ehtiyojlar faqatgina ongli mavjudot bo'lgan inson tomonidan anglaniladi, u tomonidan qondiriladi. Hayvonot olamiga xos bo'lgan ehtiyojlar bilan inson ehtiyojlari orasidagi tafovutni psixologiya izohli lo'g'atida berilgan sharx orqali bilishimiz mumkin.

Psixologiya izohli lug'atida ehtiyojlarga: "Ehtiyoj – organizmning hayotini taminlovchi zarur sharoitlarni aks ettirishdan iborat faoliyat motivi; qondirilmagan muhtojlikni sezish; ehtiyoj odamlarga ham, hayvonlarga ham hosdir. Biroq hayvoniy va insoniy ehtiyojlar bir-biridan tubdan farq qiladi: hayvon ehtiyojlari faqat tabiiy, organik sifatlariga ega, inson ehtiyojlari esa ijtimoiy qonuniyatlarga bo'ysunadi, yangi ijtimoiy-tarixiy jihatdan taqozo qilingan"[3] – deya ta'rif beriladi.

Iqtisodiy fanlar tizimida ehtiyojlar ishlab chiqarish va tabiiy resurslar bilan birgalikda tilga olinadi. Insonning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishi moddiy ishlab chiqarishni, aniqrog'i, tabiiy resurslarni talab etadi. Insonning ehtiyojlari qanchalik qondirilsa, tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar proporsional tarzda kamayib boradi. Inson ehtiyojini qondiruvchi mahsulotni yaratish o'z-o'zidan yangi mahsulotlarni yaratish zaruratini shakllantiradi. Masalan: yangi ishlab chiqarilgan avtomobil oila ehtiyojini qondiradi, avtomobil harakatlanishi uchun yoqilg'i, ehtiyot qismlari zarur.

Iqtisodiyotda bozor qonuniyatlari ham bevosita inson ehtiyojlariga borib taqaladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish talabga, talab esa ehtiyojga bog'liq. Insonlarning ehtiyojlari ko'p bo'lsa, talab shunchalik ko'p bo'ladi, ishlab chiqarish, yaratuvchanlik yuqori bo'ladi [2].

Ehtiyojlar – organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlik. Nazariy va amaliy iqtisodiyotning fundamental kategoriyalaridan biri. Ehtiyoj sub'ekt bilan uning faoliyati o'rtasidagi bog'lanishlarni ifoda etadi va maqsadlar, mayllar, intilishlarda va pirovardida hatti-harakatlar, fe'l-atvorda yuzaga chiqadi. Faoliyat sohasiga qarab mehnatga, bilimga, muloqotlarga; ob'ektiga qarab moddiy, ma'naviy; sub'ektiga ko'ra yakka (shaxsiy), guruh, jamoaviy, ijtimoiy ehtiyoj bo'lishi mumkin. Ehtiyojning umumiy qonuniyati – ularning umuman bevosita inson faoliyatiga, xususan, ijtimoiy ishlab chiqarishga bog'liq bo'lishidir. Ayni payda faollikka undovchi kuch bo'lgan ehtiyoj, o'z navbatida, hayot sharoitlariga tanlama ta'sir ko'rsatadi, ularning o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, u yoki bu faoliyat usullarini va ehtiyojni qondiradigan predmetlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Masalan, bir vaqtlar kishilarda avtomobilga paydo bo'lgan ehtiyoj ularni yaratish yo'lida izlanishlarning boshlanishiga sabab bo'ldi, butun bir sanoat tarmog'ining paydo bo'lishiga olib keldi [1].

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zarurlari bilan belgilangan, ma'naviyat bilan mushtaraklashgan ehtiyojlar inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy kuchdir. Ehtiyoj bo'lmagan joyda hech qanday taraqqiyot va yuksalish bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi E harfi, "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 281-bet.
2. Maxkamova M., Masteeva I., Yuldasheva N. Iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2007, 104 b., 8-9 bet.
3. Psixologiya izohli lug'ati. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 1975 yil.
4. "Falsafa" (qomusiy lug'at). O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati. "Sharq" nashriyoti. T-2004y. 468 bet.
5. Falsafa. Ensiklopedik lo'g'at (M. Abdullaeva va b.). "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" milliy nashriyoti, Toshkent – 2010 yil.
6. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: 1997, -188 b.